



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 104 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	

BITIRUVCHI TALABALARNING QADRIYATLAR TIZIMINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdulazizova Muslima

Abdurasulova Sevinch

Ikromova Aziza

Toshkent Amaliy Fanlar Universitet talabalari

Iskanderova Sayyora

Toshkent Amaliy Fanlar Universitet katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda qadriyatlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o'rni, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitdagi transformatsiyalari ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar ta'lim jarayonini takomillashtirish va yosh mutaxassislarni samarali tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, bitiruvchi talabalar, qadriyatlar tizimi, psixologik omillar, shaxs rivojlanishi.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the psychological characteristics of the value system of university graduates. The study examines the role of values in personal and professional development, the factors influencing their formation, and their transformation within the modern sociocultural environment. The findings are important for improving the educational process and enhancing the effective preparation of young professionals.

Key words: higher education, graduates, value system, psychological factors, personal development.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу психологических особенностей системы ценностей студентов, оканчивающих высшие учебные заведения. В исследовании рассматриваются роль ценностей в личностном и профессиональном развитии, факторы, влияющие на их формирование, а также их трансформация в современном социокультурном пространстве. Полученные результаты имеют важное значение для совершенствования образовательного процесса и эффективной подготовки молодых специалистов.

Ключевые слова: высшее образование, выпускники, система ценностей, психологические факторы, развитие личности.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar yoshlarning qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari shaxsiy va kasbiy identifikatsiya jarayonining muhim bosqichida turib, o'z qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda. Qadriyatlar tizimi shaxsning hayotiy yo'nalishini, qaror qabul qilish jarayonini va ijtimoiy moslashuvini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois bitiruvchi talabalarning qadriyatlari shakllanishi va rivojlanishini o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D.A. Leontyev asarlarida "anglash" oddiy tushunishdan ko'ra chuqurroq jarayon sifatida talqin etiladi. Muallif fikricha, ma'no faqat bilim olishda emas, balki hodisaning shaxs uchun ahamiyati va yo'nalishida namoyon bo'ladi. Anglash jarayoni shaxsning faol ishtirokini talab qiladi va voqelikning qadriy mazmunini izlash bilan bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, ma'no "ochilgan" borliqning xususiyati sifatida qaraladi hamda insonning qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi (Leontyev, 1999).

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar qadriyatlar tizimini turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Xususan, Sh. Shvartsning universal qadriyatlar nazariyasiga ko'ra, shaxs qadriyatlari uning ehtiyojlari va ijtimoiy tajribasi bilan belgilanadi. Milton Rokich nazariyasi esa qadriyatlarni terminal va instrumental turlarga ajratib, ularning shaxs hayotidagi o'rni aniqlaydi^[3].

Bundan tashqari, Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi yoshlarning qadriyatlari shakllanishi va evolyutsiyasini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazariy yondashuvlar bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimi dinamik, rivojlanib boruvchi va ko'p omilli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.



Ushbu omillarni bir necha asosiy guruhlarga ajratish mumkin.

*Birinchi*dan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim rol o'ynaydi. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida o'zgarishlar yoshlarning kasbiy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy bitiruvchilar barqarorlik bilan bir qatorda innovatsiya, ijodkorlik va shaxsiy rivojlanishga ham intiladilar.

*Ikkinchi*dan, ta'lim muhiti va universitet madaniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qitish uslublari, professor-o'qituvchilarning shaxsiy namunasi va akademik muhit talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, tanqidiy fikrlash hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Uchinchi dan, oila va yaqin ijtimoiy muhit qadriyatlar tizimining asosiy poydevorini tashkil etadi. Biroq zamonaviy yoshlar an'anaviy qadriyatlar va shaxsiy erkinlik o'rtasida muvozanat izlamogda.

*To'rtinchi*dan, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ortib bormogda. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, yangi qadriyatlar shakllanishiga xizmat qilmoqda.

*Beshinchi*dan, shaxsiy tajribalar muhim ahamiyatga ega. Talabalik davridagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar qadriyatlarining qayta shakllanishiga olib keladi. Bitiruvchi talabalarning asosiy qadriyatlari va ularning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish shaxsiy rivojlanishning ushbu bosqichiga xos bo'lgan bir qator muhim jihatlarni ochib beradi. Ushbu davrda qadriyatlar tizimi nisbatan barqarorlashadi, biroq ayni paytda kelajakdagi kasbiy va hayotiy tanlovlar bilan bog'liq ichki ziddiyatlar ham kuchayadi.

Psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bitiruvchi talabalar orasida individualistik qadriyatlar ustunlik qiladi. Jumladan, "o'z-o'zini namoyon qilish", "shaxsiy erkinlik", "muvaffaqiyatga erishish" va "moddiy farovonlik" muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, kollektivistik qadriyatlar – "oilaviy baxt", "do'stlik", "jamiyatga foyda keltirish" va "ijtimoiy adolat" ham yuqori darajada qadrlanadi. Ushbu ikki yo'nalishdagi qadriyatlar o'zaro uyg'unligi yoki ziddiyati shaxsning psixologik farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik nuqtayi nazardan, qadriyatlar talabalarning motivatsion sohasini belgilaydi, qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir etadi va o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarini faollashtiradi. Masalan, kasbiy qadriyatlari yuqori bo'lgan talabalar o'z faoliyatida tashabbuskorlik ko'rsatadi, qiyinchiliklarga bardoshli bo'ladi va doimiy ravishda o'z malakasini oshirishga intiladi.

Bundan tashqari, qadriyatlar ijtimoiy moslashuv jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Umumiy qadriyatlarga ega bo'lgan guruhga mansublik hissi shaxsning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi hamda o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishiga yordam beradi. Aynan shu davrda bitiruvchi yoshlarda hayotiy ma'no izlash, o'z o'rnini anglash va shaxsiy missiyasini belgilashga intilish kuchayadi. Mazkur jarayonlar natijasida shakllanayotgan qadriyatlar tizimi shaxsning ichki psixologik holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, qadriyatlar ierarxiyasining shakllanishi shaxsning o'z-o'zini baholashiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va kelajakka nisbatan munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bitiruvchi talabalar uchun qadriyatlarining kasbiy faoliyat va hayotiy rejalarga ta'siri markaziy ahamiyatga ega. Oliy ta'limni tugatish arafasida turgan yoshlar kelajakdagi kasbiy yo'lini tanlashda aynan o'z qadriyat yo'nalishlariga tayanadilar. Shu bois mazkur omil ularning kasbiy qaror qabul qilish jarayonida muhim psixologik determinant sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsiy qadriyatlar va tanlangan kasb o'rtasidagi moslik kasbiy qoniqish, ishga sodiqlik va psixologik farovonlikning muhim omili hisoblanadi. Agar shaxs qadriyatlari kasbiy faoliyat mazmuniga mos kelsa, u yuqori motivatsiya bilan ishlaydi, samaradorligi oshadi va kasbiy "kuyish" holatiga kamroq duch keladi. Aksincha, qadriyatlar va kasb o'rtasidagi nomuvofiqlik kasbiy norozilik, stress va hatto kasbni o'zgartirishga olib kelishi mumkin. Shu bois kasb tanlash jarayonida qadriyatlarni hisobga olish muhim psixologik omil hisoblanadi.

Hayotiy rejalarga kelsak, qadriyatlar yoshlarning oila qurish, farzand tarbiyalash, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq qarorlarini belgilaydi. Masalan, ijtimoiy mas'uliyat qadriyati yuqori bo'lgan shaxslar ko'pincha ijtimoiy ahamiyatga ega kasblarni tanlaydi yoki jamoat faoliyatida faol ishtirok etadi. Shuningdek, zamonaviy bitiruvchi yoshlar orasida ekologik ong, barqaror rivojlanish va global fuqarolik kabi yangi qadriyatlar shakllanmogda. Bu esa ularning kelajakdagi hayotiy strategiyalariga va kasbiy tanlovlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qadriyatlar shaxsning hayotiy strategiyalarini, jumladan, riskka moyillik, o'zgarishlarga moslashuvchanlik hamda qiyinchiliklarga qarshi turish qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimini o'rganishda turli metodologik yondashuvlardan foydalaniladi. Eng avvalo, kvantitativ tadqiqotlar keng qo'llanilib, ular so'rovnomalar, standartlashtirilgan testlar (Shvartsning qadriyatlar so'rovnomasi, Rokichning qadriyat yo'nalishlarini o'rganish metodikasi) hamda statistik tahlil usullariga asoslanadi. Milton Rokich tomonidan ishlab chiqilgan

qadriyat yo'nalishlarini o'rganish metodikasi shaxsning qadriyat-ma'no sohasini o'rganishda keng qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Ushbu metodika qadriyatlar ro'yxatini bevosita ranglashga asoslanadi va qadriyatlarni terminal (maqsad) hamda instrumental (vosita) turlarga ajratadi. Ushbu yondashuvlar qadriyatlarining umumiy tendensiyalarini, guruhlararo farqlarni va ularning boshqa psixologik o'zgaruvchilar bilan bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, kvantitativ usullar katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish orqali keng qamrovli ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, kvalitatif tadqiqotlar ham muhim o'rin tutadi. Ular chuqur intervyular, fokus-guruhlar va kontent tahlili orqali talabalarning qadriyatlariga oid shaxsiy tajribalarini o'rganishga imkon beradi. Mazkur yondashuv qadriyatlarining subyektiv mazmunini, ularning shakllanish mexanizmlarini va shaxs hayotidagi rolini chuqurroq ochib beradi. So'nggi yillarda aralash metodlar yondashuvi tobora ommalashib bormoqda. Ushbu yondashuv kvantitativ va kvalitatif usullarni uyg'unlashtirgan holda qadriyatlar tizimini yanada kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Natijada nafaqat umumiy tendensiyalar, balki ularning psixologik asoslari ham chuqur o'rganiladi. Shuningdek, madaniyatlararo tadqiqotlar turli mamlakatlardagi bitiruvchi talabalarning qadriyatlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa globallashuv sharoitida qadriyatlar evolyutsiyasini tushunish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar bir qator muhim tadqiqot bo'shliqlarini ham ochib beradi.

*Birinchi*dan, oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimini kompleks o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida yetarli darajada emas. Ko'pgina ilmiy ishlar umumiy talabalar guruhiga qaratilgan bo'lib, aynan bitiruv bosqichining psixologik xususiyatlari yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Holbuki, ushbu davr kelajakdagi kasbiy va hayotiy tanlovlar uchun muhim poydevor hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, qadriyatlar tizimining vaqt davomida o'zgarishini o'rganishga qaratilgan uzunlamasiga tadqiqotlar yetarli emas. Bitiruvchilarning qadriyatlarini universitetni tugatgandan keyin – kasbiy faoliyatni boshlash, oila qurish yoki yangi ijtimoiy rollarni egallash jarayonida qanday transformatsiyaga uchrashini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

*Uchinchi*dan, qadriyatlar tizimining boshqa psixologik konstrukt bilan o'zaro bog'liqligi yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, kasbiy kompetensiyalar, emotsional intellekt, shaxsiy samaradorlik va stressga chidamlilik bilan bog'liqligini aniqlash bitiruvchilarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

*To'rtinchi*dan, zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar qadriyatlariga ta'sir mexanizmlarini chuqurroq o'rganish zarur. Bugungi kunda aynan ushbu omillar yoshlarning dunyoqarashi va qadriyat yo'nalishlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ushbu ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalishlarni belgilab beradi. Bu esa oliy ta'lim tizimida bitiruvchilarni mustaqil hayot va kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur nazariy tahlillar asosida olib borilgan empirik tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, bitiruvchi talabalar orasida individualistik va kollektivistik qadriyatlar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Anketa natijalariga ko'ra, respondentlarning aksariyati shaxsiy rivojlanish, kasbiy muvaffaqiyat va moddiy farovonlikni ustuvor qadriyatlar sifatida baholagan. Shu bilan birga, oilaviy qadriyatlar, do'stlik va jamiyatga foyda keltirish kabi ijtimoiy qadriyatlar ham muhim o'rin egallagan. Rokich metodikasi natijalari esa talabalar orasida terminal qadriyatlar sifatida "baxtli hayot", "oilalar farovonligi" va "mustaqillik" yuqori o'rinlarni egalaganini ko'rsatdi. Instrumental qadriyatlar orasida esa "mas'uliyatlilik", "halollik" va "mehnatsevarlik" ustunlik qilgan.

XULOSA

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimi murakkab va ko'p omilli jarayon natijasida shakllanadi hamda ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu tizim ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta'lim muhiti, oila, tengdoshlar ta'siri hamda shaxsiy tajribalar asosida rivojlanadi. Bitiruv bosqichidagi talabalarda individualistik (o'z-o'zini namoyon qilish, erkinlik, muvaffaqiyat) va kollektivistik (oilalar, jamiyat, ijtimoiy adolat) qadriyatlarining uyg'unlashuvi kuzatiladi. Ushbu uyg'unlik yoki ziddiyat shaxsning psixologik farovonligi, o'z-o'zini baholashi va hayotiy pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qadriyatlar talabalarning motivatsion sohasi, qaror qabul qilish jarayonlari va o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarini belgilaydi. Ayniqsa, kasbiy qadriyatlar va tanlangan kasb o'rtasidagi moslik bitiruvchilarning kasbiy qoniqishi, samaradorligi va psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.



Mazkur tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, talabalar qadriyat yo'nalishlarini maqsadli ravishda shakllantirish va rivojlantirish oliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin: Oliy ta'lim muassasalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening va seminarlarni tashkil etish; Talabalarda kasbiy qadriyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik dasturlarni joriy etish; Ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiruvchi pedagogik yondashuvlardan foydalanish; Psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish orqali talabalarni kasbiy tanlov jarayonida qo'llab-quvvatlash. Ushbu chora-tadbirlar yosh mutaxassislarining muvaffaqiyatli kasbiy va shaxsiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Леонтьев Д.А. Психология смысла. – М.: Смысл, 1999. – 487 с.
2. Кон И.С. Психология личности. – М.: Политиздат, 1987.
3. Рокич М. Природа человеческих ценностей / М. Рокич // Свободная пресса. – 1973. – № 5. – С. 20–28.
4. Абульханова К.А. Рубинштейновская категория субъекта и ее различные методологические значения // Психология индивидуального и группового субъекта / Под ред. А.В. Брушлинского, М.И. Воловиковой. – М.: ИП РАН; ПЕР СЭ, 2002. – С. 34–50.
5. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – М.: Мысль, 1991.
6. Абульханова-Славская К.А., Брушлинский А.В. Философско-психологическая концепция С.Л. Рубинштейна: К 100-летию со дня рождения. – М.: Наука, 1989.
7. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 1997.
8. Анохин П.К. Принципиальные вопросы общей теории функциональных систем. – М.: Медицина, 1971.
9. Анцыферова Л.И. Психология формирования и развития личности // Человек в системе наук. – М., 1989. – С. 426–433.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.